

J A R A Y O N YO'LLAR QURILISHI VA TA'MIRLASH ISHLARI



J A R A Y O N

YO'LLAR QURILISHI VA TA'MIRLASH ISHLARI

Soha rivojiga berilayotgan e'tibordan ro'h olib faoliyat olib borayotgan tumanimiz tadbirkorlari Suxning obodonchiligiga ham o'z hissalarini qo'shishmoqda. Buni Lennbur mahalla fuqarolar yig'ini misolida ham ko'rishimiz mumkin.

2020-2021 yillarda Farg'ona viloyatining So'x tumanini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish chora-tadbirlari Dasturiga asosan tumanimiz hududida 2020 yilning o'zida yo'llarni qurilish va ta'mirlash ishlariiga 34,6 milliard so'm yo'nalitirilishi rejalashtirilgan. Shundan bu yili tumanimiz hududida 160 km shag'al qoplamlari yo'llarni sementobeton qoplamaga o'tkazish va asfalbt qoplama yotqizish, 106 km tuproq yo'llarni shag'al qoplamaga o'tkazish va 40 km sementobeton piyodalar yo'laklarini qurish ko'zda tutilgan.

Lenbur mahalla fuqarolar yig'inida davlat xususiy sherikchilik asosida mahalla fuqarolar/Yg'ini ma'muriy binosi qurilmoqda. Shuningdek, Dastur asosida mahalla hududida ichki ko'chalarni betonlashtirish ishlari ham jadallik bilan olib borilmoqda. Tadbirkor Ortiqali Ne'matov ham mana shunday xayrli ishlarga bel bog'lagan. Tadbirkorning so'zlariga ko'ra, mahalladagi ko'chalardan biriga 480 metrli

betonli qoplama yotqizildi. Shuningdek, bugun ushbu mahallaning "Lochin" ko'chasida betonlashtirish va trotuar yotqizish ishlari davom etayotir. - Yaqin kunlarda betonlashtirish ishlarini oxiriga yetkazish niyatimiz bor, - deydi tadbirkor.

Sux tumani hokimligi Axborot xizmati

2020-09-24 17:47:14